KERAMIKADAGI EPIGRAFIK MATNLARGA IJTIMOIY-MADANIY RAKURSDAN NIGOH

Toshova Sharifa Panoevna
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent v. b.,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.14604839

ANNOTATSIYA

Markaziy Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi bilan mintaqada g'oliblar tili – arabcha va islom dini hukmron mavqeni egallay boshladi. Hukmron islom dini tirik jonzotlar qiyofasini tasvirlashni taqiqlagani sabab, mahalliy kosiblar keng mazmun va teran g'oya bilan ajralib turadigan bezak usulini topishlari kerak edi. Natijada yangi bezak vositasi – epigrafika yaratildi, u badiiy ifodaning eng muhim vositasiga aylandi. Maqolada Movarounnahr va Xuroson kulollari tomonidan ishlangan epigrafik bezaklar mahalliy aholining shunchaki estetik didini aks ettirib qolmasdan, shu davr siyosiy, madaniy va axloqiy g'oyalarini tashuvchi muhim vosita ham bo'lgani ochib beriladi.

KALIT SO'ZLAR

sopollardagi epigrafik yozuvlar, kosiblar madaniyati, siyosiy-diniy qarashlar, tasavvuf.

АННОТАЦИЯ

С завоеванием Центральной Азии арабами язык завоевателей – арабский и исламская религия стали занимать доминирующее положение в регионе. Поскольку господствующая религия ислам запрещала изображение живых существ, местным мастерам пришлось найти способы украшения, отличающиеся широким содержанием и глубокой идеей. В результате был создан новый декоративный инструмент – эпиграфика, ставшая важнейшим средством художественной выразительности. В статье показывается, что эпиграфические орнаменты, выполненные гончарами Мавераннахра и Хорасана, не только отражали эстетический вкус местного населения, но и были важным средством передачи

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

эпиграфические надписи на керамике, ремесленная культура, политико-религиозные взгляды, суфизм.

политических, культурных и нравственных идей того периода.

ABSTRACT

With the conquest of Central Asia by the Arabs, the language of the conquerors, Arabic, and the Islamic religion came to dominate the region. Since the dominant religion Islam forbade the depiction of living beings, local craftsmen had to find ways of decoration characterized by a broad content and deep idea. As a result, a new decorative tool was created – epigraphy, which became the most important means of artistic expression. The article shows that epigraphic ornaments made by the potters of Maverannahr and Khorasan not only reflected the aesthetic taste of the local population, but also were an important means of conveying political, cultural and moral ideas of that period.

KEY WORDS

epigraphic inscriptions on ceramics, craft culture, political and religious views, Sufism.

KIRISH. Mutaxassislar islom dinida qimmatbaho metallardan yasalgan idishlardan foydalanish taqiqlanganligi bois, VIII asr oxiridan boshlab Samarqandda va umuman O‘rta Osiyoda kulolchilikda sirlangan idishlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilganligini e’tirof etishadi [7: 28.]. VIII asr oxiridan boshlab sopolchilikda sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi – idishlarning shakllari o‘zgardi va naqsh solishning yangi usullari paydo bo‘ldi. Kundalik hayotda ishlatiladigan juda ko‘p standart buyumlar vujudga keldi. Bular kulolchilik charxida yasaladigan kichkina kosalar, qadahlar, tutqichli jomlar, turli maqsadlarda ishlatiladigan idishlar (suv tashish uchun, yuvinish uchun, ovqatlanish uchun)dir. Sirlangan idish uy egalarining ijtimoiy o‘rni va boyligini bildirar edi. Sirlangan sopol idishlar qimmat bo‘lgani bois ular juda qadrli edi. Shu sabab sirlangan idishlardan asosan aholining hukmron qatlami va savdogarlar foydalangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘rta Osiyo sirlangan sopol buyumlaridagi yozuvlar birinchi marta XIX asrning 80-yillarida V. Krestovskiy va N.I. Veselovskiy, XX asrning boshlarida V. L. Vyatkin kabi olimlar tomonidan ilk marta qayd etilgan [3: 23.]. 1940-yillardan boshlab V.A. Krachkovskaya, O.G. Bolshakov, keyinchalik Yu.F. Buryakov, Sh.S. Tashxodjaev, Sh. Pidaev, J. Ilyasova va S. Ilyasov kabi bir qator tadqiqotchilar idishlardagi kufiy yozuvli matnlarni o‘qishgan va ular haqidagi ilmiy ishlarini nashr etishgan [8; 3; 4; 10; 9; 6].

Shuningdek, S. Flury[1], E. Atil, A. Ghouchani, O. Pancaroğlu, R.Hasson kabi bir qator xorijiy taqqiqotchilar ham chet davlat muzeylarida saqlanayotgan Markaziy Osiyo sopol idishlaridagi arabiy yozuvlarni o‘qib, ularning ingliz tiliga tarjimasi va ilmiy tahlilini amalga oshirishgan [14; 15; 16; 17]. Bu kunga qadar tadqiqotchilar tomonidan keramikadagi 70 dan oshiq matnlar o‘qilgan [6: 383]. Tadqiqotchilar asosan idishlardagi yozuvlarni tarjima qilishgan va matnlarni islom arboblarining hikmatli so‘zlari, xalq maqollari, ezgu tilaklar sifatida tahlil qilishgan. Biz epigrafik matnlarni, avvalo, o‘sha davr mafkurasining ajralmas bir qismi bo‘lgan tasavvufiy qarashlar kontekstida o‘rgandik.

Tahlil va natijalar. IX–X asrlarda Movarounnahr va Xuroson idishlarining o‘ziga xosligi ularning arab tilidagi yozuvlar bilan ziynatlangani bo‘ldi. Bu orqali kulollar islom madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Epigrafik bezakli sopol idishlarni ishlab chiqarish markazlari asosan Samarqand, Nishopur va Shosh (Toshkent) bo‘lgan. Epigrafik naqshlar bilan odatda ochiq shakldagi oshxona buyumlarini (qadah, piyola, taboq, kosa, finjonlar), kamdan-kam hollarda esa yopiq shaklli idishlar (jomlar, albarello)ni bezashgan. Movarounnahr va Xurosonda X–XI asrlarda arab tilida, kufiy va nasx xatlarida hikmatli iboralar va tilaklar bitilgan sirlangan idishlarni ma’naviy qadriyat va oilaviy boylik timsollari sifatida xonadonlarda saqlash va ishlatish urfga kirdi[2].

San’atning barcha turlarida bo‘lgani kabi, kulolchilikda ham davr g‘oyalari eks etgan. Chunonchi, X asrdan boshlab Xuroson va Movarounnahrda qarmatiylik, tasavvuf va javonmardlik (fatiylar) ta’limoti keng tarqalgan edi[3]. Qarmatiylar bilimga katta ahamiyat qaratgani holda, falsafani dindan ustun qo‘yganlar. Ular bilim, xayr-saxovat, oliyjanoblikni targ‘ib qilganlar. Javonmardlar shogirdlarini mardlik va fidoyilik, saxovat va qanoat ruhida tarbiyalaganlar. Bundan tashqari, har bir tariqat vakilidan avvalo biror-bir halol va pokiza kasb bilan shug‘ullanishi talab etilgan. Chunki kasb tariqatning zaruriy shartlaridan biri sanalardi. Javonmardlik ta’limotining nazariy jihatlari asosan Sharafiddin Sanoiyning “Chor kitob”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi sultoniy” asarlarida o‘z ifodasini topgan.

---

[1] Hali sopol idishlardagi matnlar yetarlicha to’pib to’planmagan bir paytda, epigrafika sohasining mutaxassislari kichik hajmli matnlarning tarixiy, ilmiy qiymatini shubha bilan qaraganlari bois ularni yetarlicha baholay olmaganlar. Hatto, arab epigrafikasining yirik bilimdoni S. Flury “…sopollardagi kichik hajmli matnlar biror bir qiymatga ega emas”, degan fikrni bildirgan. [3: 42].

[2] Aslida sopollarga yoki umuman har qanday narsadan yasalgan idishlarga tilakli bitiklar yozish odati ancha qadimiy an’ana. Jumladan, oltin jomlar, sopol va metall buyumlarga tushirilgan bir qancha Farg‘ona yozuvlari bizgacha yetib kelgan. Bular qabrtoshlardagi 5 ta yozuvdan iborat va Yettisuv yodgorliklari nomi bilan mashhur bo‘lgan, siyosiy elitaning monumental qabrtosh epitafiyalaridir [1: 12; 2; 12].

[3] Qarmatiylar – erkin dehqonlar jamiyati va qishloq jamoasining huquqlarini tiklash uchun islomga qarshi qaratilgan bir harakat edi. Bu harakat dehqonlar va hunarmandlardan tortib vazirlar va hatto hukmdorlarga qadar o‘ziga jalb qilgan. Qarmatiylar “Sunniy bilan sunniy bo‘l, shia bilan shia bo‘l, nasroniy bilan nasroniy bo‘l” tamoyiliga amal qilishgan.

Xullas, IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda futuvvat – javonmardlik harakati keng tarqalgan edi. Tadqiqotchilar futuvvatga tasavvufiy qarashlarning amaliy tatbiqi sifatida qaraydilar [11: 196]. Fatiylar saxovat, mardlik, adolatparvarlik namunasi sifatida jamiyatda ulug‘langan. So‘fiylar va javonmardlar ta’limotlari sekinlik bilan keng xalq ommasi orasiga kirib borib, hunarmandlar, qiziqchilar, sipohiylar kabi qatlamlarni ham qamrab ola boshladi. Shu tariqa hunarmandchilik uyushmalarining qarashlarida ham so‘fiylik tamoyillari – “futuvva” o‘z aksini topa boshladi. Hatto ayrim avliyolar ba’zi kasblarning homiy pirlariga ham aylanib bordi. Javonmardlarning axloqiy me’yorlari asrlar davomida hunarmand ustozdan shogirdiga og‘zaki tarzda yetkazib borilgan. XVIII yuzyillikning oxirlaridan boshlab esa yozma shaklda ham yoyila boshlagan. Hunarmandlar risolalarining axloqiy me’yor va e’tiqodlarga oid qismi Sanoiyning “Chor kitob”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Koshifiyning “Futuvvatnomayi sultoniy” kabi asarlariga tayanilgan holda yaratilgani fikrimizning dalilidir. Masalan, “Qobusnoma”ning 44-bobi “Javonmardlik zikrida” deb atalib, unda futuvvat[4] odobi, bu tur insonlarga xos axloq namunalari haqida so‘z boradi. Husayn Voiz Koshifiyning asarlarida pir–muridlik (ya’ni ustoz–shogirdlik) odobi, xirqa va kuloh kiyish tartiblari, belbog‘ bog‘lash, qasamyod etish udumi va marosimlari, futuvvatchilarning burchlari, vazifalari haqida ma’lumot berilgan [5: 58]. Futuvvat inson tiynatini poklash, mehr-shafqat, himmat va mardlik ko‘rsatishni targ‘ib etadi. “Futuvvat so‘zining lug‘aviy ma’nosi – “yoshlik”. Demak, yosh yigitni “fatiy” derlar. Ba’zilar bu so‘zga izoh berib, futuvvatni javonmardlik (jo‘mardlik) deganlar. Istiloh sifatida futuvvat deb omma orasida yaxshi sifatlar va namunali xulq bilan mashhur bo‘lishni aytadilar”, deb tushuntirgan Koshifiy [5: 5–7].

Fatiylar oliyjanoblik, bilim olishga intilish, rostgo‘ylik, saxiylik, halol mehnat orqali kun kechirishni targ‘ib qilishgan. Masalan, kasb-hunar odobi to‘g‘risida Koshifiy bunday yozadi: “Umr o‘tkazishga zarur vosita (maosh) hosil bo‘lmaguncha kishi osoyishta bo‘lmaydi. Va agar kishi o‘z kasbi bilan zaruriy narsalarni muhayyo etmasa, odamlarni ranjitadi, azobga qo‘yadi”. Tabiiyki, o‘sha davr adabiyotida o‘z muhrini qoldirgan bunday g‘oyalar xalq ijodining turli shakllarida ifodalanishi bilan birga, kulolchilik ustalarining ishlarida ham aks etdi.

Endi javonmardlik ta’limotidagi g‘oyalarning bevosita sopollarda aks etgan matnlarini ko‘rib chiqaylik. Turkiyalik olim O. Pancarogli o‘zi to‘plagan aforizmlarni mazmuniga qarab uch guruhga bo‘ladi. Birinchi guruh – saxovat. Saxovat baxillikka qarshi qo‘yiladi. Boylik insonga baxt va xayr keltirmasligi uqtiriladi. Ikkinchi guruh – maqtovli xulq. Bunga hayo, sabr va mulohazakorlik, so‘z

[4] Futuvvat arabchada yigitlik, mardlik degan ma’noni bildiradi.

va sukut, sadoqat va oliyjanoblik kabi sifatlar kiritiladi. Uchinchi guruh – bilim va uning inson hayotidagi ahamiyati [16: 59–75].

Quyidagi shu uch turkumga mansub epigrafik matnlarni o‘quvchilarimiz diqqatiga havola qilamiz:

“Saxiylik jannat ahlining xulqidir” (الجود من اخلاق اهل الجنة)

“Saxiylik nomus va mulkning himoyachisidir” (الجود حارس العراض و الاملوک)

“Boyliklarning eng sharaflisi – istaklardan voz kechishdir” (اشرف الغنى ترک المنى برکة)

“Agar sizning saxiyligingiz, yaxshi ishlaringiz dunyoga yoyilsa, mashhur bo‘lsa, albatta siz haqingizda masal to‘qiladi” (إذا المكارم في افاقها انتش رت فإنما بک فيها يضرت المثل برکـة لابى جعفر بن غريب)

“Бойлик саховатли кишининг кафтида бўлмаса унда хайр-яхшилик йўқ” (لا خير في المال اذا لم يكن عند حوا ذا لكن وهاب باليمن و البركت)

“Ziqnalik faqirlik belgisidir” (الحرص علامة من الفقر)

“Hayo iymonnig bir shoxidir” (الحيا شعبهة من السمان)

“Fikr bildirishda sabrli bo‘l” (الاناناة قبل الرأى)

“Hamd, maqtov fatiy yigit uchun uning xazinasi bo‘lib qoladi, boylik biror bir sohibiga qolmaydi” (الحمد يبقا ذخره الفتى والمال لا يبقا لارباب)

“Bilim fatiylar ziynati, aql oltin tojdir” (العلم زين الفتى العقل تاج من ذهب).

“Ilm ehsonlarning eng sharaflisidir, muruvvat esa nasablarning eng ulug‘idir” (العلم اشرف الاحسان والمروة اشبک الانساب).

Xullac amaliy san’atning har qanday turi ma’lum darajada o’z davrining mafkurasini aks ettiradi. IX-X asrlarda Moverannahr xalqlarining mafkurasi bir xil bo’lmagan. Somoniylar davrida ayniqsa yirik shaharlar murosasiz mafkuraviy qarama-qarshiliklar maydoniga aylangandi. Musulmonlar orasida falsafiy va teologik tafakkurning alohida yo’nalishi bo’lmish qarmatiylik, mo’taziliylik keng tarqalgan edi. Bu ta’limotlarning tarafdorlari islom aqidalarini taftish qilib, insonning erkinligi, Qur’onning yaratilishi nazariyasini ilgari suradilar. Ayniqsa erkin dehqonlar jamiyati va qishloq jamoasining huquqlarini tiklashga intilgan qarmatiylar islom diniga qarshi zimdan kurashganlar. Ular Mahammad payg’ambarning kuyovi Alini, imom Mahdini va Abu Muslimni ideallashtirganlar. Hatto oxirgisini xudo o’rnida ko’rishgan [13: 45].

Siyosiy jarayonlarning inikosi o’laroq kulollar o’sha davrlarning diniy va falsafiy tizimlarida muhim rol o’ynagan Ali siymosining ramzi bo’lgan sher tasvirini sopol buyumlarga chizishgan. Bir necha oq kaptarlar bilan bezatilgan sopol parchalari mutaxassislar tomonidan topob o’rganilgan. “Abu Muslim Alloh taoloning eng ulug’ ismini aytdi. U oq kaptarga aylanib, uchib ketdi va hozir misdan qurilgan ma’lum bir qo’rg‘onda u Mahdiy va Mazdak bilan birga o’tiradi, uchalasi ham qaytib keladi”, degan fikrlarni xalq orasida tarqatishgan. Boshqa bir spool

idishda “Ozod kishi boshqalarga mehribondir” (الشرف الحر بر) kabi erkinlik, ozodlikka chorlovchi shiorlar ham uchraydi.



Afrosiyob, XI asr. Yozuv: اليمن (farovonlik).
https://mytashkent.uz/2021/05/08/iz-geshtalta-v-pars-pro-toto/

Xulosa va takliflar. Somoniylar davrida urfga kirgan chiroyli tartibli kufiy yozuvida tilaklar bitish an’anasi Qoraxoniylar davrida ham davom ettirilgan bo‘lsada, uzundan-uzoq jumlalardan iborat tilaklar o‘rnini (“farovonlik” (اليمن), “barakat” (البركة), salomatlik (السلامة), uzoq umr (المدُ) tilash kabi qisqa istak so‘zlar egalladi. Bu yozuvlar shunchaki bezak o‘rnida qo‘llanila boshladi [11:79].



Afrosiyob, XI asr. Yozuvاليمن الاناة قبل الرأى (fikr bildirishda sabrli bo‘l).
https://mytashkent.uz/2021/05/08/iz-geshtalta-v-pars-pro-toto/

Keyinroq sirlangan sopol buyumlardagi xattotlik yozuvlar va bo‘rtmalar o‘z semantik ma’nosini yo‘qota borgan. Ular ba’zan o‘qib bo‘lmaydigan yozuvli naqshga yoki o‘simlik va gul bezaklariga aylantirib yuborilgan. Yuqorida tasviri bertilgan idishdagi arabiy kalligrafik yozuv shunday stilizatsiya qilinganki, uni

o‘qish eng uquvli mutaxassis uchun ham biroz qiyinlik tug‘diradi. Bu naqsh mutaxassislar tomonidan “gullagan kufiy” deb nomlangan.

Bizning tadqiqotimiz epigrafik bitiklar birinchi navbatda o‘rta asrlar sopol idishlarining muhim madaniy belgisi ekanligini e’tirof etgani holda, ularning o‘sha davr diniy, axloqiy va didaktik xarakterdagi ta’limotlari mohiyatini aks ettirganini va ularni ommalashtirishga xizmat qilganini ta’kidlaydi. Marv idishidagi yozuv Samarqand idishidagidek saxovatga chorlaydi, Tunkat kosasidagi yozuv ilmni kuylaydi. VIII–X asrlarda, javonmardlik irfoniy ta’limoti jamiyat hayotida muhim o‘rin tutgan bir pallada kulol va rassomlar (ehtimol, ularning o‘zlari ham tasavvuf oqimi vakillari bo‘lishgandir) bu ta’limotning asosiy g‘oyalarini tashuvchi vosita sifatida sopol idishlardagi epigrafik yozuvlardan keng foydalanishgan. XI asr boshlariga kelib, jamiyat hayotida javonmardlik amaliyoti susayib borishi bilan epigrafik yozuvlar ham butunlay stilizatsiya qilingan va uning o‘rnini bezak elementlari egallagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Асанов Э.Э. Этническая история Узбекистана в свете тюркских рунических памятников // Вестник Челябинского государственного университета. – 2013. – №10 (301). Филология. Искусствоведение. – Вып. 76.
2. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – вып. 26. – М.–Л., 1952.
3. О. Г. Большаков. Арабские надписи на поливной керамике Средней Азии IX–XII вв. // ЭВ. Вып. XIX. М.–Л., 1969. С. 42– 50.
4. Буряков Ю.Ф. Надписи на глазурованных сосудах Тункета // Материалы по истории Узбекистана. Ташкент, 1963. С. 123–130.
5. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати / Форс-тожик тилидан Н. Комилов таржимаси. Тошкент: “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси” нашриёти, 1994.
6. Илясова С.Р., Илясов Дж. Я., Имамбердиев Р.А., Исхакова Й.А. “Нет блага в богатстве...”. Глазурованная керамика Ташкентского оазиса IX–XII веков. Москва: Фонд Марджани, 2016.
7. Karabacek, J. On Muslim ceramics. Collection of ceramic objects from near and far Orient, Vienna, 1887.
8. Крачковская В.А. Эволюция куфического письма в Средней Азии // Эпиграфика Востока. Вып. III. М.–Л., 1949. С. 3–27.
9. Пидаев Ш. Сополдаги ҳикматлар // Меҳнат ва турмуш. Тошкент, 1971. № 11. С. 28.

10. Ташходжаев С.Ш. Художественная поливная керамика Самарканда IX – начало XIII вв. Ташкент: Фан, 1967.
11. Усмонов И. Тасаввуф: ўқув-услубий қўлланма. Тошкент: Ислом университети, 2012.
12. Хатамова М.М. Турк хоқонлиги шаҳарлари (VI – VIII асрлар).: Тарих фан. ... фалс. док. (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2018. 58.
13. Якубовский А.Ю. Восстание Муканны – движение людей в белых одеждах СВ В. 1948.
14. Atil Esin. Ceramics from the World of Islam. Freer Gallery of Art. Fiftieth Anniversary Exhibition. III. Washington, 1973.
15. Ghouchani Abdallah. Inscription on Nishabur Pottery. Tehran, 1986.
16. Hasson R. The Art of Arabic Calligraphy. L.A. Mayer Memorial Museum for Islamic Art. Jerusalem, 1995.
17. Pancaroğlu O. Serving Wisdom: The Contents of Samanid Epigraphic Pottery // Studies in Islamic and Later Indian Art from the Arthur M. Sackler Museum, Harvard University Art Museums. Cambridge, 2002. P. 59–75.